



“GO‘RO‘G‘LI” TURKUMIDAGI AKSIOLOGIK TIZIM (To‘rt qadriyat klasterining tipologik tahlili)

Z.V.Teshaboyeva,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil Jurnal soni: 16-B Maqola raqami: 55 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1768 KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS “Go‘ro‘g‘li” turkumi, aksiologik tizim, qadriyatlar klasteri, jasorat, oila qadriyati, vafodorlik, adolat, tipologik tahlil	Maqolada “Go‘ro‘g‘li” turkumi (to‘rt doston: “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Yunus pari”, “Hasanxon”, “Avazxonning o‘limga hukm etilishi” hamda “Xiromon Dali”) matni kontent-tahlil va aksiologik tasniflash metodlari orqali tadqiq etilib, turkumdagi qadriyatlar tizimi to‘rt o‘zaro bog‘liq klasterga ajratiladi: 1) jasorat, mardlik va vatanparvarlik; 2) oila, ota-ona hurmati va nasl davomiyligi; 3) vafodorlik, do‘stlik-birodarlik va insonparvarlik; 4) adolat, halollik va mehnatsevarlik. Har bir klaster ichida yana bir necha aniq yo‘nalish (jami yigirma oltita) ajratilib, ular matndan olingan bevosita iqtiboslar bilan asoslanadi. To‘rt klaster bir-birini takrorlamaydi, balki inson hayotining to‘rt konsentrik doirasi – jamoat maydoni, oila, shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy-huquqiy tizim – bo‘yicha tizimli taqsimlangan. Barcha to‘rt klaster maktab ta’limida ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida qo‘llash uchun tizimli aksiologik asos yaratadi.

Kirish. “Go‘ro‘g‘li” turkumining tarbiyaviy salohiyatini ilmiy asoslashda eng avval hal qilinishi lozim bo‘lgan masala uning matnida qanday aniq qadriyatlar, qay tartibda va qay darajada ifodalanganini tizimli aniqlashdir. Umumiy tarzda “qahramonlik eposi axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qiladi” degan tezis o‘zi yetarli emas. Ilmiy tadqiqot uchun bu qadriyatlar aniq tasnifi, har bir tur uchun matndan olingan dalillar va ularning o‘zaro munosabati ko‘rsatilishi shart. Mazkur maqolaning maqsadi “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi to‘rt asosiy doston (“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Yunus pari”, “Hasanxon”, “Avazxonning o‘limga hukm etilishi”) hamda “Xiromon Dali” dostoni matni asosida turkumning aksiologik (qadriyatlar) tizimini to‘liq, klasterli tasniflashdan iborat.

Vazifalar: 1) doston matnidagi qadriyatli epizodlarni aniqlash va guruhlash; 2) har bir qadriyat klasteri uchun ichki tipologik yo‘nalishlarni ajratish; 3) klasterlarning o‘zaro munosabatini (konsentrik tuzilishini) aniqlash; 4) olingan aksiologik tizimni avvalroq ishlab chiqilgan uch komponentli (kognitiv, emotsional-qiyamat, xulq-atvor) pedagogik model bilan qiyoslash. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, “Go‘ro‘g‘li” turkumi qadriyatlar tizimi bu qadar to‘liq, klasterli va matniy iqtiboslar bilan asoslangan holda ilgari tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi: 1) kontent-tahlil metodi – to‘rt asosiy doston va “Xiromon Dali” dostoni matnini to‘liq o‘qib chiqish va qadriyatga oid epizodlarni ajratib olish orqali; 2) aksiologik tasniflash metodi – ajratilgan epizodlarni mazmuniy yaqinligiga ko‘ra klasterlarga (jasorat, oila, vafodorlik, adolat) va har bir klaster ichida aniq tipologik yo‘nalishlarga bo‘lish orqali; 3) qiyosiy-struktura tahlili – klasterlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni (bir-birini takrorlamaslik, konsentrik tuzilish) aniqlash uchun; 4) sintetik-modellashtirish metodi – olingan aksiologik tizimni muallifning ilgari ishlab chiqqan uch komponentli pedagogik modeli bilan qiyoslash uchun. Manba sifatida jami o‘n uch doston tanlab olindi: Rahmatulla shoir Yusuf o‘g‘li repertuaridagi 2006 yilgi “Go‘ro‘g‘li: O‘zbek xalq dostonlari” to‘plami va 1997 yilgi to‘rt jildlik nashrning 2-jildi (“Avazxon”, “Gulqizoy”, “Besh podshoning Chambilga yov bo‘lib kelishi”, “Sarvinov”, “Zulfizar”, “Hasanxon”, “Qirg‘ yigit bilan qirg‘ qiz”), Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li repertuaridagi “Avazxonning o‘limga hukm etilishi”, hamda Muhammadqul Jomrot o‘g‘li Pulkan repertuaridagi alohida nashr etilgan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” va “Yunus pari” dostonlari, shuningdek “Xiromon Dali” dostonining tegishli bo‘limlari. Barcha o‘n uch doston to‘liq, boshidan oxirigacha, sahifama-sahifa kontent-tahlil usulida o‘rganildi.

Natijalar. Birinchi klaster: jasorat, mardlik va vatanparvarlik qadriyatlar. Jasorat, mardlik va vatanparvarlik qadriyatlar turkumidagi barcha dostonlarda, istisnosiz tarzda namoyon bo‘ladi. Uning ilk namunasi genezis dostonida ramziy shaklda berilgan: go‘rda tug‘ilgan chaloqni bir baytal o‘z ko‘krak suti bilan emizib boqadi [1, 52-b.], uch yoshlaga esa bola allaqachon qo‘rqmas tabiat ko‘rsata boshlaydi [1, 53-b.]. “Yunus pari” dostonida jasorat tarbiyasining muhim mexanizmi jamoaviy ruhni so‘z orqali ko‘tarish san‘ati – namoyon bo‘ladi: Takabegi Zamonning “Hammang birday buncha jondan qo‘rqasan... Aslo qo‘rqmanglar arabdan!” [2, 263 (elektron nusxa)-b.] da‘vatidan so‘ng, roviy “shu gap bilan hamma yig‘ilgan qora ko‘zlar yuragini bosib oldi”

deb ta’kidlaydi [2, 264 (elektron nusxa)-b.]. “Hasanxon” dostonidagi mardlik sinovi esa jasoratning o‘zaro hurmatga aylanish imkonini ko‘rsatadi: mag‘lub bo‘lgan Hasanxon Go‘ro‘g‘liga “Mard ekansan, mardligingni bildiring... shart ayladim, otam bo‘lding, Go‘ro‘g‘li” [3, Hasanxon, 101-b.] deya ixtiyoriy ravishda shogird-farzand bo‘lishni tanlaydi. Nihoyat, “Avazxonning o‘limga hukm etilishi” dostonida o‘n yetti yashar Avazxon yolg‘iz o‘zi to‘qson olti bahodir bilan jangga borib g‘alaba qozonishi [4, 13–14-b.] orqali jasorat yosh avlodga xos fazilat sifatida ham ko‘rsatiladi.

Jasorat klasterining yana bir muhim qirrasini “Yunus pari” dostonidagi Samandar dev epizodi ko‘rsatadi: jangda bilmasdan ko‘plab turkmanlarni o‘ldirib qo‘ygan Samandar chuqur pushaymon bo‘lib, “Bilmaganin bildir desang bildiray... ixtiyor o‘zingda endi qarindosh... o‘ldir desang o‘ldirayin barini” [2, 273 (elektron nusxa)-b.] deya Go‘ro‘g‘liga murojaat qiladi. Go‘ro‘g‘li esa uni jazolamay, aksincha sadoqat ahidini qabul qiladi: “Nohaqdan o‘lmasin hech kim, o‘zim bilan billa yurgin!” [2, 274 (elektron nusxa)-b.] — bu epizod jasorat va insonparvarlikning qanday uzviy bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi: kuchli shaxs xatosini tan olganda, jazo emas, isloh yo‘li tanlanadi.

“Besh podshoning Chambilga yov bo‘lib kelishi”: jamoaviy vatanparvarlikning badiiy kodeksi. Yuqorida ko‘rilgan misollarda jasorat ko‘proq individual qahramonlik shaklida namoyon bo‘lsa, “Besh podshoning Chambilga yov bo‘lib kelishi” dostoni butunlay jamoaviy-vatanparvarlik g‘oyasi atrofida qurilgan. Xunxorshoh besh podsho bilan birlashib, katta qo‘shin bilan Chambilga yov bo‘lib kelgani ma’lum bo‘lganda, el-yurt birdek safarbar bo‘ladi: “Uyg‘otirlar, yurtga dushman kelibdi... tez turinglar, birodarlar, netamiz” [3, Besh podshoning Chambilga yov bo‘lib kelishi, 117-b.] degan xitob – xalq dostonchiligidagi Vatanni himoya qilish chaqirig‘ining klassik formulasi. Bu yerda jasorat alohida qahramonning emas, butun jamoaning fazilati sifatida tasvirlanishi muhim pedagogik ahamiyatga ega: xavf har bir kishining shaxsiy mas’uliyatiga aylanadi – bu jamoaviy model yuqorida ko‘rilgan yakka jasorat namunalarini (Hasanxon, Avazxon) to‘ldiruvchi, ularga zid emas, balki ularni yakunlovchi qirradir.

Xiyonatdan kechirimga: Bektosh arabning tavbasi va ibrat orqali ta’sir. “Avazxon” dostonidagi Bektosh arab epizodi jasoratni xiyonatdan kechirimga yo‘naltirishning yorqin namunasi beradi. Avvalida Bektosh Go‘ro‘g‘lini aldab asirga oladi, lekin mardonavor olishuvda yengilib, chin dildan tavba qiladi: “Barakalla, kuchingga qoyil bo‘ldim, Go‘ro‘g‘li... Mening o‘tgan gunohlarimni kechir” [3, Avazxon, 51-b.]. Go‘ro‘g‘li esa “mardning ishi kechirmak, xatolarni uchirmak” degan tamoyil asosida uni kechiradi [3, Avazxon, 51–52-b.], shundan so‘ng Bektoshning sadoqati keyingi jangda amalda tasdiqlanadi. Ayniqsa muhimi, yosh Avazxonning o‘zi bu jasorat namunasi bilan ta’sirlanishi alohida qayd etiladi: Go‘ro‘g‘lining katta dushman qo‘shinini yolg‘iz mag‘lub etishini kuzatib, Avazxon ichida “mardlik ham shuncha bo‘lar-da” deb o‘ylaydi [3, Avazxon, 43-b.] – bu jasoratning kuzatish orqali, bevosita ibrat sifatida yosh avlodga o‘tishining aniq badiiy ko‘rsatkichidir.

Soxta mardlik va haqiqiy qat’iyat orasi: “Gulqizoy” dostonidagi antiteza. “Gulqizoy” dostoni jasorat tarbiyasiga muhim uslubiy vosita –

antiteza orqali haqiqiy va soxta mardlikni farqlash imkonini – qo‘shadi. Govdaro dev xavfi ma‘lum bo‘lganda, Go‘ro‘g‘lining qirg‘ yigiti jamoaviy ravishda mardlik qasamini ichadi: “Aliyor deb tutdim, oling qulimdan” [3, Gulqizoy, 100–101-b.], biroq amaliy harakatga kelganda faqat yosh Avazxon o‘rtaga chiqadi: “Mard yigit devlarni ko‘zga ilmaydi... Men ham ish ko‘rsatib polvon bo‘layin” [3, Gulqizoy, 100–101-b.]. Diqqatga sazovorki, dev mag‘lub etilib, uning ajal baqirig‘i eshitilgan zahoti, xuddi shu qasam ichgan yigitlar qo‘rquvdan har tomonga tumtaraqay qochib ketadilar [3, Gulqizoy, 106-b.]. Bu keskin antiteza (so‘zda berilgan qasam bilan amalda ko‘rsatilgan qo‘rqoqlik o‘rtasidagi) dostonning pedagogik mazmunini yanada boyitadi: chinakam mardlik so‘zda emas, sinov onidagi harakatda sinaladi. Gulqizoyni qutqarish tarixida esa Go‘ro‘g‘lining o‘zi yolg‘iz, yordamchisiz holda, tunda raqib qal‘asiga maxfiy kirib, “Mardligimni bugun izhor aylayin... Xurosonga mardligimni bildirdim” deya faxr bilan e‘lon qiladi [3, Gulqizoy, 86–88-b.]. Bu epizod jasoratning maxfiy jur‘at shaklidagi ifodasini ko‘rsatadi.

Ayol qahramonning faol jasorati: “Sarvinoz” va “Zulfizar” dostonlari misolida. Birinchi klasterning diqqatga sazovor qirrasini ayol qahramonlarning faol, mustaqil jasorati tashkil etadi. “Sarvinoz” dostonida Xunxorsihonning qizi Sarvinozxon otasidan maxfiy ravishda Avazxonni ozod qilish uchun ijozat so‘rab, “men borib, bir g‘ayrat qilib, yetmish ikki xil hiylani ishlatib... Avazxonni olib kelay” deya o‘z rejasini tuzadi [3, Sarvinoz, 162-b.], jodugar Zebish bilan bo‘lgan xatarli olishuvda Go‘ro‘g‘lini ogohlantiradi [3, Sarvinoz, 166-b.] va nihoyat zindon eshigini shaxsan o‘zi ochib, Avazxonni ozod qiladi [3, Sarvinoz, 169-b.]. “Zulfizar” dostonida esa ayol qahramonning jasorati eng yuksak nuqtaga yetadi: Zulfizarga so‘vchi bo‘lish xatarli sinov bo‘lib, Go‘ro‘g‘lining qirg‘ yigiti ichida faqat yosh Avazxon bu safarga javob beradi [3, Zulfizar, 182-b.], o‘zi “Ota, iza ber, ijozat, Hashtaxonga ketay jo‘nab oldingdan” deya talabgor bo‘ladi [3, Zulfizar, 183-b.]. Bunday misollar – “Yunus pari”dagi jangovar ayollar, “Sarvinoz”dagi mustaqil qahramon qiz – jasorat qadriyatining turkumda jinsdan qat‘i nazar umumiy fuqarolik fazilati sifatida idrok etilganini ko‘rsatadi.

Ikkinchi klaster: oila, ota-ona hurmati va nasl davomiyligi qadriyatlar. Oila qadriyati eng chuqur shaklda “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida – onalik qurbonligi motivi orqali – ochiladi: Bibi Hilol ajali oldidan “O‘ldirsa xudoning ishi-da. Men o‘limga roziman” [1, 47-b.] deya taqdirga rozi bo‘ladi, go‘dak esa onaning go‘rida, o‘limdan keyin tirik tug‘iladi [1, 51-b.]. Yetim go‘dakning “Ko‘kragingga nimaga sut kelmaydi, ochlikdan, enajon, ketdi madorim!” [1, 52-b.] degan nidosi onalik mehriiga bo‘lgan tug‘ma ehtiyojni ifodalasa, Rustambekning go‘dakni o‘z farzandi bilan barobar tarbiyalashi [1, 63-b.] asrab olish va otalik mas‘uliyatining qon-qarindoshlikdan ustun bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. “Xiromon Dali” dostonining kirish qismi esa farzandni bevosita ilohiy in‘om sifatida idrok etishning ramziy-diniy tasvirini beradi: farzandsiz chol-kampir avliyolarning karomatli olmasi orqali “to‘qqiz oy, to‘qqiz kun, to‘qqiz soat, to‘qqiz daqiqadan keyin... murod-maqadlariga yetadi” [3, Xiromon Dali, 370-b.]. Bu takrorlanuvchi formula farzandni uzoq kutilgan, taqdir va ilohiy inoyat natijasi sifatida idrok etishni mustahkamlaydi. Xuddi shu motiv “Avazxon” dostonida (1997 yilgi nashr) ham takrorlanadi: Go‘ro‘g‘li sultonning o‘zi farzandsizlik iztirobini ochiq iqrar qiladi – “Endi mening bo‘lmas sabru qarorim, befarzandman shuytib, yo‘qdir madorim” [3, Avazxon, 5-6-b.], doston yakunida esa ikki asrandi o‘g‘li (Hasanxon va Avazxon) bilan yonma-yon o‘tirgan Go‘ro‘g‘li “Endi hargiz yo‘q armonim, o‘g‘lim, aliyor-aliyor” [3, Avazxon, 59-60-b.] deya tantanali xursandchiligini izhor etadi. Bu dostonning bosh mavzusi (farzandsizlik iztirobidan farzandli baxtga o‘tish) kompozitsion yakuni bo‘lib, oila qadriyatining turkumdagi markaziy o‘rmini yana bir bor tasdiqlaydi. Rustambekning “Bibi Hilol singlim bo‘ldi, chirog‘im, bir tog‘a – yetti ota bo‘larmish!” [1, 54-b.] degan maqoli esa qarindoshlik tushunchasining oila doirasidan tashqariga – ma‘naviy yaqinlik asosida – kengayishi mumkinligini ko‘rsatadi. Nikoh va oila qurish odobi esa “Gulqizoy”, “Yunus pari”, “Zulfizar”, “Sarvinoz” va “Qirg‘ yigit bilan qirg‘ qiz” dostonlarida so‘vchilik, nikoh marosimi va ota-ona nasihatlar orqali tizimli jarayon sifatida tasvirlanadi, bunda qizning o‘z nikoh taqdirini mustaqil hal qilish huquqi ham saqlanib qoladi.

Uchinchi klaster: vafodorlik, do‘stlik-birodarlik va insonparvarlik qadriyatlar. Uchinchi klasterning markaziy tashkil etuvchi tamoyili – sadoqat va xiyonat antitezasi – “Xiromon Dali” dostonida eng tizimli, deyarli “darslik” shaklida ifodalangan: “Vafodorlik” terminida “Layl-u nahor bo‘lib ko‘makdosh, yor ko‘nglini olar vafodor” [3, Xiromon Dali, 377-b.] deyilsa, unga ko‘zgu-aks sifatida qurilgan “Bevafo” termini “Shundaylardan Go‘ro‘g‘li bezor, odam emas, ular ajdahor” [3, Xiromon Dali, 378-b.] deya xiyonatkor xulqni qat‘iy hukm bilan fosh etadi. Mag‘lub bo‘lgan Go‘ro‘g‘lini Xiromonning xo‘rlamay ozod qilishi [3, Xiromon Dali, 379-b.] raqibga hurmat ko‘rsatishning badiiy namunasi bo‘lsa, Oydin Yusuf piming “Yolg‘on gapirma, birovning haqini yema...”

Hech kimga jabr qilma” [3, Xiromon Dali, 383-b.] degan zich axloqiy kodeksi dostonidagi eng ixcham insonparvarlik formulasidir.

Insonparvarlik amaliy harakat orqali ham namoyish etiladi: Go‘ro‘g‘lining yo‘ldoshlari sinov maqsadida uyushtirilgan holatda “o‘g‘rilik”da tutib olingach, haqiqat aniqlangach darhol kechirim ko‘rsatilib ozod qilinadi: “Tunov kun uni ayab, indamay yuborgan edim... shu bugunog‘ Chambilga qaytib ketsin” [3, Xiromon Dali, 384-b.] bu epizod “haqiqatni aniqlaguncha shoshilmaslik” tamoyilining badiiy namunasi bo‘lib, u to‘rtinchi klasterda ko‘rib chiqiladigan shoshilinch, isbotsiz hukmning ziddiga qurilgan ijobiy andozadir.

To‘rtinchi klaster: adolat, halollik va mehnatsevarlik qadriyatlar. To‘rtinchi, yakuniy klaster ko‘proq ijtimoiy-huquqiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. “Avazxonning o‘limga hukm etilishi” dostonida tuhmatning mexanizmi aniq ko‘rsatiladi: Ahmad Sardorning yolg‘iz yomon niyatidan boshlangan ig‘vo [4, 17-b.] qirg‘ yigit va to‘qson olti bahodirning soxta guvohligi orqali rasmiylashib, Go‘ro‘g‘lining isbotsiz, shoshilinch hukmiga olib keladi [4, 17-b.]. Shu bilan birga doston haqiqat tarafdorlarini ham ko‘rsatadi: Avazxonning o‘zi hatto o‘lim xavfi ostida ham “Tuhmatchining joyi bo‘lar jahannam” [4, 22-b.] deya halollik bilan aybsizligini bayon qiladi. Jamoaviy jazoning adolatsizligiga qarshi esa doston ochiq norozilik bildiradi: “Gunoh qilmas norasida go‘daklar... ota uchun bola boshi berami?!” [4, 36-b.] — bu orqali jazo faqat aybdorning o‘ziga mutanosib bo‘lishi lozimligi yorqin ifodalanadi.

Ijtimoiy adolat va mehnat ahliga hurmat: Karimberdi misoli (“Xiromon Dali” dostonida). To‘rtinchi klasterning yana bir qirrasini “Xiromon Dali” dostonidagi Karimberdi obrazini ochib beradi: temirchi shogirdi Karimberdi qashshoqligiga qaramay o‘z qadr-qimmatini saqlaydi, uning piri Oydin Yusuf esa “Yolg‘on gapirma, birovning haqini yema. Boshqalardan o‘zingni baland ko‘rma” [3, Xiromon Dali, 383-b.] degan qasamyod orqali halollikni moddiy (mulkiy huquq) va ijtimoiy (kamtarlik) jihatdan birlashtiradi. Go‘ro‘g‘li esa boylik va diniy obro‘ orasidagi nohalol ittifoqqa nisbatan tanqidchi mulohaza bildiradi: bir zolim kambag‘allardan zulm bilan to‘plagan jundan gilam to‘qitib eshonga hadya qilganida, eshon “u zolimning yana rivoj topishi uchun duo qilgan” ekan [3, Xiromon Dali, 382-b.]. Bu orqali doston mazmullarning e‘tibordan chetda qolishini ochiq fosh etadi. Mehnat ahliga hurmat mavzusi “Hasanxon” dostonida ham parallel uchraydi: Hasanxonni tarbiyalagan kishi zodagon emas, hunarmand – usta zargar – bo‘lib, bu orqali turkum hunarmand mehnatining ijtimoiy qadr-qimmatini badiiy tasdiqlaydi.

Yolg‘onning axloqiy-diniy oqibati ham alohida ta‘kidlanadi: “Men bilaman, Sardor tuhmat qilibdi, imonidan ayrilibdi, guvohlik bergan kishilar o‘ziga jabr qilibdi” [4, 32-b.]. Bu orqali halollik tushunchasi diniy-axloqiy (imon) kategoriyaga bog‘lanadi: yolg‘on gapirgan kishi avvalo o‘z imonidan ayriladi deb ta‘kidlanadi. Avazxonning singlisining ogohlantirishi – “Senga tuhmat qildi ul Ahmad Sardor, guvohlik bergandi necha yigitlar” [4, 18-b.] – va Og‘a Yunus parining hali hukm chiqmasdan turib aytgan “Avaz uchun qilgan tuhmatlar bekor” [4, 25-b.] degan so‘zlari adolat va haqgo‘ylikning jamoada doimo mavjud bo‘lishini, garchi ular darhol eshitilmasa-da, ko‘rsatadi.

KLASTERLARNING BATAFSIL TIPOLOGIK TARKIBI

Birinchi klaster (jasorat, mardlik, vatanparvarlik) uch o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: 1) jamoaviy-vatanparvarlik jasorati – el-yurtini yovdan himoya qilish burchi (“Besh podshoning Chambilga yov bo‘lib kelishi” dostonida eng to‘liq ifodalangan); 2) shaxsiy-jangovar jasorat – yolg‘iz qahramonning sinov va janglarda ko‘rsatgan mardligi (“Yunus pari”, “Hasanxon”); 3) yosh avlodning axloqiy-ruhiy jasorati – adolatsizlik va sinovlarga sabr bilan bardosh berish (“Avazxonning o‘limga hukm etilishi”, “Gulqizoy”, “Zulfizar”). Bunga qo‘shimcha ravishda, turkumda jasorat qadriyati jinsdan qat‘i nazar umumiy fuqarolik fazilati sifatida ham tasvirlanadi (“Yunus pari”, “Sarvinoz”, “Zulfizar”).

Ikkinchi klaster (oila, ota-ona hurmati, nasl davomiyligi) olti yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: 1) onalik qurbonligi va tug‘ilish ramziy-mifopoetik tasviri (“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”); 2) asrab olish va otalik mas‘uliyati, unda tarbiya va sadoqat qon-qarindoshlikdan ustun qo‘yiladi, biroq bu biologik rishtalarni inkor etmaydi; 3) oilaning nohaq tuhmat tufayli parchalanishi va ota-bolaning o‘zaro kechirim orqali qayta birlashuvi; 4) nikoh va oila qurish odobi – so‘vchilik, oqsoqollar kengashi, nikoh marosimi, ota-ona va qaynota-qaynona nasihatlari orqali ikki oilani birlashtiruvchi tizimli jarayon; 5) rahbarning o‘z yigitlarining oilaviy baxti uchun ota kabi mas‘uliyat olishi; 6) farzand ilohiy in‘om sifatida idrok etilib, uning yo‘qligi chuqur iztirob, topilishi esa oliy baxt sifatida ko‘rsatiladi.

Uchinchi klaster (vafodorlik, do‘stlik-birodarlik, insonparvarlik) o‘nta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: sadoqat va xiyonat antitezasi (“Xiromon Dali”dagi termalar orqali); insonni isloh qilish mumkinligi g‘oyasi (Bektosh, Shaydullo, Samandar, Arslonboy kabi

obrazlarda takrorlanuvchi andoza); rostgo'ylik tarbiyasi; mehmondo'stlik an'analari; ustoz-shogird sadoqati; xiyonatdan chin do'stlikka o'tgan qahramonning taqdiri; jangovar vafodorlik; otaning insonparvarlik vasiyati va uning amalda sinallishi; do'stlik-birodarlik va ishonilgan mas'uliyatga sadoqat; yovuzlikni insofga chaqirish va begonalarga muruvvat. Ushbu tizim "raqibni hurmat qilish", "haqiqatni aniqlaguncha shoshilmaslik" va "zo'ravonlikdan ko'ra muzokarani tanlash" kabi tamoyillar orqali jasorat mavzusi bilan dialektik bog'lanib, haqiqiy jasoratning doimo insonparvarlik bilan cheklanishi lozimligini tasdiqlaydi.

To'rtinchi, yakuniy klaster (adolat, halollik, mehnatsevarlik) o'n ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: tuhmatning mexanizmi; haqiqat tarafdorlari; jamoaviy jazoning adolatsizligi; halollik mardlikning ajralmas mezonlari sifatida; tuhmatchilikning takrorlanuvchi illat ekani va uning muqarrar jazosi; odil hukmning asosiy sharti ("so'ramasdan" hukm chiqarmaslik, dalil orqali haqiqatni aniqlash); ijtimoiy adolat va mehnat ahliga hurmat (hunarmand-kosib tabaqaning ijtimoiy qadri-qimmatini); adolatsizlik va mutanosiblik tamoyili; halollikning ko'p qirrali ifodasi (to'g'rilik, halol meros, omonatga sadoqat); mehnatsevarlik g'oyasi; zolimga qarshi ko'tarilgan adolat ovozi va ibratli jazo; odil hukmdorning xalq arizasiga quloq solishi.

To'rt klasterning ichki tipologik tarkibi va ularning asosiy manbalari quyidagi jadvalda umumlashtirildi (1-jadval):

Klaster	Yo'nalish soni	Asosiy manba(lar)	Hayot doirasi
Jasorat-vatanparvarlik	3	"Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Yunus pari", "Hasanxon", "Avazxon"	Jamoat maydoni
Oila	6	"Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Gulqizoy", "Yunus pari", "Zulfizar", "Sarvinov", "Qirg'yigit bilan qirg'qiz", "Xiromon Dali"	Oila
Vafodorlik-insonparvarlik	10	"Xiromon Dali", "Avazxon", "Gulqizoy", "Sarvinov", "Yunus pari"	Shaxslararo
Adolat-halollik-mehnatsevarlik	12	"Avazxon", "Xiromon Dali", "Hasanxon", "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Qirg'yigit bilan qirg'qiz", "Sarvinov"	Ijtimoiy-huquqiy

Jami yigirma oltita tipologik yo'nalish (3+6+10+12=26 ta deb ro'yxatga olingan – jasorat klasterida uch, oila klasterida olti, vafodorlik klasterida o'n, adolat klasterida o'n ikkita yo'nalish) to'rt klaster bo'yicha taqsimlanadi. Diqqatga sazovorki, klasterlar soni klasterdan klasterga ortib borayotganday ko'rinadi (3 → 6 → 10 → 12), lekin bu – qadriyatning "muhimlik darajasi"ni emas, balki uning matndagi tasvirlanish maydonining kengligini ko'rsatadi: jasorat qisqa, aniq sahnalarda (jang, sinov) namoyon bo'lsa, adolat-halollik ko'proq uzoq, ko'p bosqichli syujet chizig'i (masalan, butun "Avazxon" dostoni) orqali ochiladi.

Muhokama. Aniqlangan to'rt klaster umumpedagogika fanidagi ijtimoiy-axloqiy sifatlar tizimi bilan ham mos keladi. B.Ziyomuhammadov mehnatsevarlik, vatanparvarlik, jasurlik va sahovatlilik kabi sifatlarini tarbiya natijasida shakllanishi zarur bo'lgan asosiy fazilatlar sifatida ko'rsatadi, jumladan jasurlikni "boshqa barcha fazilatlarining amalga oshirish sharti" deb ta'riflaydi: "Kishida yuqorida sanab o'tilgan barcha fazilatlar bo'lsa-yu, jasurlik bo'lmasa, u boshqa fazilatlardan hech kimga naf tegmaydi" [5, 77-b.]. Diqqatga sazovorki, bu to'rt sifat (mehnatsevarlik, vatanparvarlik, jasurlik, sahovatlilik) mazkur maqolada aniqlangan to'rt klaster bilan deyarli bevosita mos keladi – jasurlik birinchi klasterga, sahovatlilik uchinchi (insonparvarlik) klasterga, mehnatsevarlik to'rtinchi klasterga to'g'ri keladi. Bu moslik tasodifiy emas: u "Go'ro'g'li" turkumidagi qadriyatlar tizimining umumpedagogika fani tomonidan alohida, mustaqil ravishda asoslangan ijtimoiy-axloqiy sifatlar tizimi bilan chuqur uyg'unligini – demak, turkumning zamonaviy pedagogik mezonlar bo'yicha ham to'laqonli tarbiyaviy vosita ekani – tasdiqlaydi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, "Go'ro'g'li" turkumidagi to'rt qadriyat klasteri bir-birini takrorlamaydi, aksincha inson hayotining to'rt konsentrik doirasi bo'yicha tizimli taqsimlangan: jasorat-vatanparvarlik – jamoat maydonida (el-yurt, jang), oila – uy-xonadon doirasida (tug'ilish, nikoh), vafodorlik-insonparvarlik – shaxslararo (do'st, raqib,

begona) munosabatlarda, adolat-halollik-mehnatsevarlik esa ijtimoiy-huquqiy tizim (hokimiyat, jamoat, mehnat) doirasida namoyon bo'ladi. Bu to'rt doiraning yig'indisi – oiladan to'rtinchi darajasigacha – yosh avlodga inson hayotining barcha asosiy ijtimoiy kontekstlarida qanday axloqiy pozitsiya tutish kerakligini ko'rsatuvchi yaxlit tizim hosil qiladi.

Mazkur to'rt klasterli tizim muallifning ilgari boshqa maqolada ishlab chiqilgan uch komponentli (kognitiv, emotsional-qiyamat, xulq-atvor) pedagogik modelga ham to'liq mos keladi: har bir klaster ichida tinglovchiga bilim (masalan, "Xiromon Dali" dasti) termalar orqali sadoqat-xiyonat tushunchalari, his-tuyg'u (Avazxonning nohaq tuhmatga nisbatan iztirobi, gunohsiz bolalar taqdiriga nisbatan achinish) va xulq-atvor andozasi (Hasanxonning shogird bo'lishi, Rustambekning asrandi farzandni tarbiyalashi) bir vaqtning o'zida uzatiladi. Bu moslik tasodifiy emas – u qahramonlik eposining tabiatan majmuaviy (kognitiv-emotsional-xulq-atvor) tarbiyaviy vosita ekani haqidagi umumiy gipotezani tasdiqlaydi va keyingi tadqiqotlarda (jumladan pedagogik mexanizmlarning tipologik tahlilida) metodologik asos vazifasini o'taydi.

Xulosa. Maqolada "Go'ro'g'li" turkumidagi aksiologik tizim to'rt klasterga (jasorat-vatanparvarlik – uch yo'nalish; oila – olti yo'nalish; vafodorlik-insonparvarlik – o'n yo'nalish; adolat-halollik-mehnatsevarlik – o'n ikki yo'nalish, jami yigirma oltita yo'nalish) ajratilib, har bir klaster matndan olingan bevosita iqtiboslar bilan asoslandi. Aniqlandiki, to'rt klaster inson hayotining to'rt konsentrik doirasi (jamoat maydoni, oila, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy-huquqiy tizim) bo'yicha tizimli taqsimlangan va uch komponentli (kognitiv, emotsional-qiyamat, xulq-atvor) pedagogik modelga to'liq mos keladi. Mazkur aksiologik tizim keyingi tadqiqotlarda, xususan, ushbu qadriyatlarini yosh avlodga yetkazuvchi olti aniq pedagogik mexanizm (nasihat-vasiyat, ibrat-andoza, sinov, antiteza, ramz, yakuniy mukofotlanish)ning tipologik tahlilida empirik asos sifatida qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G'ur'ug'lining tug'ilishi // Ўзбек халқ ижоди: Кўп томлик / Айтувчи Муҳаммадқул Жомрот ўғли Пўлкан; нашрга тайёрловчи М.Муродов. - Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967.
2. Юнус пари // Ўзбек халқ ижоди: Кўп томлик / Айтувчи Муҳаммадқул Жомрот ўғли Пўлкан; нашрга тайёрловчи Ш.Хўжаева. - Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967.

3. G'ur'ug'li: Ўзбек халқ дostonлари / Айтувчи Раҳматулла шоир Юсуф ўғли; нашрга тайёрловчилар Т.Мирзаев, З.Хусайнова. - Тошкент: Шарк, 2006.

4. Авазхоннинг ўлимга ҳукм этилиши / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли; ёзиб олувчи Ғ.Каримов; нашрга тайёрловчилар З.Хусайнова, Т.Мирзаев; масъул муҳаррир О.Собиров. - Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти.

5. Зеймұхаммадов Б. Педагогика: Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. - Тошкент: Турон-Иқбол, 2006